

IBN SINO-TILSHUNOS

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk qomisiy olim Abu Ali Ibn Sinoning nafaqat tabib va faylasuf ekanligi, balki uning tilshunos sifatida ham ijod qilgani yoritilgan. Jumladan uning fonetikaga oid “ Asbab huduvs-al-huruf” asari ommaga tanishtirilgan.

Sharqning buyuk siymolaridan biri - qomusiy olim, mutafakkir, tabib, faylasuf, shoir Abu Ali ibn Sino (980-1037-yillar) hisoblanib, u Evropada Avitsenna nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan, iste'dodli, xotirasi kuchli, zehni o'tkir bo'lganligidan o'z davrida ma'lum bo'lgan ilmlarni tez egallagan. U 16 yoshdayoq mashhur tabib - hakim bo'lib tanildi va keyinchalik "Olimlar boshlig'i", "Tabiblar podshohi" kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi.

Abu Ali Ibn Sino o'rta asrlarning buyuk qomusiy olimlaridan edi. Uning buyukligi o'sha davrning deyarli barcha fanlariga qo'shgan betakror ilmiy merosida namoyon bo'ladi. Ibn Sino xaqiqiy entsiklopedist olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasi bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Taniqli sinoshunos olimlar Ubaydulla Karimov ¹ , Hamidulla Hikmatullayev ² va Abdusodiq Irisovlarning ³ ilmiy tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, uning 450 dan ortiq asarlari bo'lgan, zamonlar o'tishi bilan ularning ko'pi yo'qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan va ulardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi ruhshunoslikka, 32 tasi tabiiyot ilmiga, 7 tasi falakiyotga, 1

¹ Karimov U. Buyuk alloma.// J.Sharq yulduzi.-1979.-№ 1. –B.198-203

² Hikmatullayev H. Ibn sinoning “ Yurak dorilari” risolasi. T.: “Fan”, 1966.-B. 30-33

³ Irisov A.Abu Ali Ibn Sino.- T.: “Fan”, 1980. – B.41.

tasi riyoziyotga, 1 tasi musiqaga⁴, 2 tasi kimyoga, 9 tasi odob ilmiga 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan.

Bu asarlardan korinib turibdiki alloma juda ham serqirra inson, bilimdon va mashhur olim edi. Uning bu turli sohlarga oid yozgan asarlari hozir ham katta ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Bu asarlarning ko'pchiligi o'rganilib, har bir millat o'z tiliga tarjima qilib o'sha fan doiralarida keng qo'llanilmoqda.

Ammo, shuni ham ta'kidlab o'tmoq lozimki, Ibn Sino arab tilshunosligiga ham katta hissa qo'shgan allomadir. Uning turli mavzularga tegishli ishlarida turli soha atamalari, masalan, tibbiyotga oid asarlarida tibbiyotga oid atamalar, adabiyotga tegishli tadqiqotlarida adabiyotshunoslikka xos atamalar, musiqaga tegishli ishlarida musiqashunoslikka ta'luqli atamalar nizomi ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, insonning nutqidagi akustik va fiziologik xususiyatlarni o'rganishga bag'ishlangan, fonemalarni tadqiq etuvchi “اسباب حدوث الحروف” (“Asbabu-l-hudusu-l-hruf”) – “Nutq tovushlarining hosil bo'lish sabablari” nomi bilan tanilgan Ibn Sinoning maxsus ilmiy risolasi bor. Bu asar XI asr boshlarida yozilgan bo'lishiga qaramay, uning talaffuz va nutq eshitilishiga oid fikrlari hozirgi zamon fonetikasidagi tushunchalarga juda yaqindir.

Ibn Sino ilmiy merosi tadqiqotchilaridan biri Suriya Arab Respublikasidan doktor, professor Shokir Fahhomning yozishicha, fonetikaga oid bu asar 415 (1024) – yil Isfahonda, davrining atoqli tilshunos olimi “Ulug' shayx” nomini olgan Abu Mansur Muhammad ibn Ali ibn Umar iltimosiga ko'ra yozilgan.⁵

Ibn Sinoning mazkur risolasining turli davrlarda kochirilgan bir qancha qo'lyozma nusxalari davrimizgacha yetib kelgan va dunyoning turli kutubxona va ilmiy dargoxlarida saqlanmoqda. Ba'zan, ularning tarkibi bir biridan tubdan farq

⁴ Ammo, Z. Oripovning yozishicha, Ibn Sinoning bizgacha yetib kelgan musiqaga oid asarlari 4 ta. Sharq mash'ali. 2003. № 1-2. –B. 44-47

⁵ ابن سينا اسباب حدوث الحروف ، تحقيق محمد حسان الطيار و يحيى ميرعلم، تقديم و مراجعة الدكتور شاكِر الفخام و الأستاذ احمد راتب النفاخ، مطبوعات مجمع اللغة العربية بدمشق 1967 ص. 8

qiladi. Mazkur qo'lyozmalarning eng qadimiy nusxasi 596 (1173) yilda ko'chirilgan bo'lsa, eng yoshi esa 1182 (1768) yildigisi hisoblanadi. Manbalarda Ibn Sinoning “اسباب حدوث الحروف” (“Asbabu-l-hudusu-l-hruf”) – asari turlicha atalib kelinadi: “رسالة في حدوث الحروف” (Nutq tovushlarining hosil bo'lish sabablari haqida risola) yoki “كتاب حدوث الحروف” (Nutq tovushlari hosil bo'lish kitobi) yoki “مخارج الحروف” (Nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rinlari). Ibn Sinoning shogirdi Abu Ubayd Al-Juzjoniyni xabar berishicha, fonetikaga oid bu asar 415 (1024)- yil Tehronda yozilgan.⁶ Eng muhimi bu asarning qo'lyozma nusxalari Britaniya va Qohira muzeylarida saqlanadi.

U ingliz,⁷ fors⁸ va nemis⁹ tillariga tarjima qilingan, tanqidiy matni ikki variantda ishlab chiqilib, to'rt bora turli davr va yerlarda nashr ettirilgan:

Birinchisi Muhibiddin al-Xatib tomonidan ikki qo'lyozma nusxa, ya'ni Londondagi Britaniya muzeyi nusxasi (1182/ 1768 y) va Misrdagi Temur kitob xazinasi nusxalari asosida hijriy 1332 (mil. 1910) yilda nashr ettirilgan. Mutaxassislar uni yuqori baxolamaydi. Shundan so'ng 40 yil o'tib, 1954-yil Tehronda risolaning **ikkinchi** nashri professor Parviz Hotil Xonlari tomonidan amalga oshirildi. Bu nashr eng qadimgi va ishonchli qo'lyozmalar asosida turlicha o'qilishi va boy ilmiy apparatga ega bo'lgani bilan oldingisidan ajralib turardi. Lekin u ham unchalik mukammal emas. Tanqidiy matnning tuzilgan ikki variantning biri tushunarli emas, shu bois bo'lsa kerak faqatgina birinchi variantgina fors tiliga tarjima qilingan holos.

Asarning **uchinchi** nashri esa Tehron bosmasi asosida 1966-yil Tbilisida V.G.Axvlediani tomonidan bajarildi. Bu nashr ancha mukammal nashr hisoblanadi. Bunda u Ibn Sinoning arab tiliga qo'shgan hissasi va ushbu risolaning arablar grammatik adabiyotidagi o'рни va rolini aniqlashga xarakat qilgan. Shu

⁶ Axvlediani. В.Г. Фонетический трактат Авиценны. «Мецниереба», Тбилиси, 1996, 12 стр

⁷ ابن سينا اسباب حدوث الحروف ، تحقيق محمد حسان الطيار و يحيى ميرعلم، تقديم و مراجعة الدكتور شاكِر الفخام و الاستاذ احمد راتب النفّاخ، مطبوعات مجمع اللغة العربية بدمشق 1967 ص.12

⁸ ابن سينا اسباب حدوث الحروف ، تحقيق محمد حسان الطيار و يحيى ميرعلم، تقديم و مراجعة الدكتور شاكِر الفخام و الاستاذ احمد راتب النفّاخ، مطبوعات مجمع اللغة العربية بدمشق 1967 ص. 21

⁹ Yuqoridagi asar 33-b.

bilan birga matnnnig ikki variantini rus tiliga tarjima qilib, ushbu nashrga kirgizgan.

Bundan tashqari ko`pgina olimu fuzalolar bu asarga o`z e`tiborlarini qaratganlar: masalan, 1934-yil M. Bravmann o`zining arablar fonetik tizimlariga bag`ishlangan monografiyasida ushbu risola matnining Qohira nashrini nemis tilidagi tarjimasini ilova tarzida ko`rsatib o`tadi. Lekin u Ibn Sinoning bu risolasini faqatgina arablar fonetik tizimlarining tarixiy jihatidangina axamiyatga ega deb aytib o`tadi. Lekin mashxur tilshunos A. Shaade Bravmann ning yuqoridagi ishini baholab ishda keltirib o`tilgan Ibn Sino risolasining nemischa tarjimasini, arablar fonetik adabiyotining muhim va qimmatli yodgorliklaridan biri ekanligini alohida ta`kidlab o`tadi. Bundan tashqari risolaning Tehron nashri H.Fleisch ning tadqiqotidagi arab tili fonetikasi asarlari ro`yhatida ham mujassamlashgan.

Ibn Sinoning “Asbab-ul huduvs ul-huruf” nomli fonetikaga oid risolasi kirish va olti bobdan iborat:

Asarning birinchi bobi tovushlarning paydo bo`lish sabablariga, ikkinchi bobi harflarning paydo bo`lish sabablariga, uchinchi bobi esa til va bo`g`iz tuzilishi ya`ni anatomiyasi haqida, to`rtinchi bob ayrim arab tovushlarining paydo bo`lish sabablari haqida, beshinchi bob oldingi bobning davomi sifatida shu arab tovushlariga o`xshash undoshlarga bag`ishlangan. Bu bobda boshqa xalq tillariga xos undosh tovushlarning yasalish o`rni, yasalish usuli, talaffuzi haqida baxs yuritiladi. Oltinchi bobda esa nutq a`zolariga bog`liq bo`lmagan arab tovushlari talaffuzi haqida so`z yuritiladi.

Umuman olganda bu asar arab tili rivoji uchun katta hissa qo`sha oladigan va butun dunyo Sinoshunos olimlarning e`tiborini tortgan asar hisoblanadi.